


“TASDIQLANDI”
“Hamkorbank” ATB Kuzatuv
Kengashining 2023-yil
2-iyundagi 6-sonli
yig‘ilishi bayoni bilan

 **I. I. Ibragimov**

“Hamkorbank” ATB Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi
NIZOM

- I. Umumiy qoidalar**
- II. Tashkiliy tuzilma**
- III. Malaka talablari**
- IV. Huquq va vakolatlar**
- V. Ma’suliyat**
- VI. Maqsadlar va vazifalar**
- VII. Ishlarni rejalashtirish**
- VIII. Auditni hamda tavsiyalar ijrosi monitoringini amalga oshirish**
- IX. Hisobdorlik va IAX faoliyati nazorati**
- X. Bankning boshqa tarkibiy bo‘linmalari, tashqi auditorlar hamda Markaziy bank bilan hamkorlik**
- XI. Yakuniy qoidalar**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida” gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Tijorat banklari ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi Nizom, ichki auditorlar instituti tomonidan qabul qilingan Ichki auditning xalqaro professional standartlari, “Hamkorbank” ATB Ichki audit siyosati, hamda bankning boshqa ichki me’yoriy hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, “Hamkorbank” ATBda ichki audit faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi atama va tushunchalardan foydalaniladi:

Ichki audit - Bank ichki nazorat tizimini, ya’ni, tavakkalchiliklarni nazorat qilish va korporativ boshqaruv tizimini sifat, jarayonlarning muvofiqligi va samaradorligi jihatidan mustaqil va xolis baholashni amalga oshirish va tavsiyalar taqdim etish bilan bog‘liq faoliyat.

Ichki audit xizmati (quyida IAX) — “Hamkorbank” ATBda ichki auditni doimiy tarzda amalga oshiruvchi, bevosita bank Kengashi va Audit qo‘mitasiga bo‘ysunuvchi mustaqil tarkibiy bo‘linma.

Ichki audit standartlari -Ichki auditorlar institutining Ichki auditning kasbga oid standartlari, Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining banklarda ichki auditga oid tamoyillari, Butunjahon buxgalterlar federatsiyasining Auditning xalqaro standartlari.

Audit qo'mitasi – bank Kengashi huzurida tashkil etilgan, bevosita Kengashga bo'ysunuvchi mustaqil tarkibiy tuzilma bo'lib, "Hamkorbank" ATBning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining nazoratiga yordam ko'rsatadi.

3. IAX o'z faoliyatini Ichki auditorlar xalqaro institutining ijro uchun majburiy hisoblangan qo'llanmalariga amal qilgan holda tartibga soladi, ushbu qo'llanmalar o'z tarkibiga *Ichki audit professional amaliyotining asosiy tamoyillari, Etika kodeksi, Ichki auditning xalqaro professional standartlari va Ichki audit ta'rifini* qamrab oladi.

4. Ushbu Nizomda IAXning tashkiliy tuzilmasi, maqsad va vazifalar, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, shuningdek, IAX faoliyatini nazorat qilish bilan bog'liq asosiy vazifalar yoritilgan, IAX faoliyati bilan bog'liq boshqa barcha tamoyillar Bankning Ichki audit siyosatida ko'rsatib o'tilgan.

II. Tashkiliy tuzilma

5. Ichki auditning mustaqilligi va xolisligi tamoyillariga muvofiqlikni ta'minlash uchun, IAX bank boshqaruviga bog'liq hisoblanmaydi hamda bevosita bank Kengashiga va Audit qo'mitasiga bo'ysunadi.

6. IAXning tashkiliy tuzilmasi bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda unga o'zgartirishlar kiritish bank Kengashining tegishli qarori asosida amalga oshiriladi.

7. IAX faoliyati, bank Kengashi qaroriga asosan lavozimga tayinlanadigan bosh auditor tomonidan boshqariladi.

8. IAX xodimlarini, lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish, bosh auditor taklifiga ko'ra, bank Kengashi qarori bilan amalga oshiriladi. Bank Kengashi qarori bilan, xodimlarni lavozimga tayinlash va ozod qilish, shuningdek, ularga ish haqi va qo'shimcha rag'batlantirish miqdorini belgilash vakolati Audit qo'mitasiga berilishi mumkin.

9. IAX xodimlarini, jumladan, bosh auditorni rag'batlantirish kelgusida manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmasligi hamda auditning mustaqilligi va xolisligiga ta'sir ko'rsatmasligi uchun bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga bog'langan bo'lmazligi lozim.

10. O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun, IAX tarkibida bo'ysunuvchi quyi tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishi mumkin. IAXning amaldagi tashkiliy tuzilmasi ushbu Nizomga ilova sifatida ko'rsatib o'tiladi.

11. Bankda IAXning mustaqilligi va xolisligi qo'shimcha ravishda quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- a) IAX vakolatlari va majburiyatlari Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari faoliyatidan ajratilgan, jumladan, bosh auditorga va IAX xodimlariga ichki auditni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni yuklash mumkin emas;
- b) bosh auditor bank Kengashi va bank Boshqaruvi raisi qabuliga bevosita kirish vakolatiga ega.

III. Malaka talablari

12. IAX xodimlariga – ichki auditorlar hamda bosh auditorga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) Kasb-malakasi bo'yicha talablar:

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida yoki umumiy tan olingan chet el oliy o'quv yurtlarida olingan oliy iqtisodiy (moliya) yoki yuridik ma'lumotga ega bo'lishi;
- bank va (yoki) moliya tizimida tavakkalchiliklarni boshqarish, monitoring va nazorat, aktiv va passivlarni boshqarish, kreditlash, chakana biznes, valyuta, buxgalteriya

hisobi va hisoboti bilan bog'liq tarkibiy bo'linmalarning birida yoki bir nechtasida kamida 3 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;

- ichki audit sohasidagi xalqaro sertifikat (CIA) yoki umumqabul qilingan xalqaro sertifikatlardan biriga ega bo'lishi, shuningdek, Ichki auditorlar instituti (IIA)ga a'zoliqi ma'qullanadi va rag'batlantiriladi;
- ichki auditning maqsadlari va vazifalarini bajarilishiga erishish uchun zarur bo'lgan, jumladan, asosiy, muhim tavakkalchiliklar va nazorat tartib-qoidalari to'g'risida, sohaning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi.

6) shaxsiy fazilatlar bo'yicha talablar:

- benuqson ishchanlik (professional) obro'ga ega bo'lish;
- tartiblilik — rostgo'y, samimiy, halol, vazmin, ehtiyotkor va mulohazakor bo'lish;
- ochiqlik — muqobil fikrlarni yoki qarashlarni qabul qila olish;
- xushmuomalalik – odamlar bilan hurmat-odob bilan munosabatda bo'la olish;
- sinchkovlik va kuzatuvchanlik – o'ziga xos va muhim tafsilotlarni aniqlay olish, sezish;
- qat'iyatlilik – matonatli, qat'iy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'lish;
- dadillik — mantiqiy mulohazalar va tahlillar asosida o'z vaqtida qaror qabul qila olish;
- mustaqillik — mustaqil ravishda harakat qilish va o'z vazifalarini bajara olish, shu bilan birga, boshqa xodimlar bilan samarali hamkorlik qilish;

b) ichki auditorlarning axloq qoidalari bo'yicha talablar:

- o'zining kasbiy vazifalarini bajarayotganda ichki auditor Bankning korporativ etika kodeksida hamda xalkaro auditorlar instituti tomonidan qabul qilingan etika kodeksida belgilangan ahloq tamoyillariga rioya qilishlari lozim (*Ichki audit siyosatining 7-bobida keng yoritib o'tilgan*).

13. IAX xodimlari jamoa tarkibida samarali ishlash layoqatiga ega bo'lishi, tavakkalchiliklarni boshqarish, prudensial normativlar, korporativ boshqaruv, komplayens-nazorat va moliya-iqtisod masalalarini tekshira olish va ularni tahlil qilish uchun zarur bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

14. IAX xodimlari tomonidan takrorlanuvchi vazifalarni bajarilishi natijasida, ulardagi tanqidiy fikrlash qobiliyatining yomonlashuvining oldini olish maqsadida, bosh auditor har besh yilda bir martadan kam bo'lmagan davriylikda IAX xodimlari rotatsiyasini amalga oshirishi mumkin. Bunda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida, IAX tarkibidagi bo'linmalardagi xodimlarni o'zaro almashtirish yoki xodimlarni bankning boshqa bo'linmalaridan IAXga va IAXdan boshqa bo'linmalarga o'tkazish bankning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

15. IAX xodimlarining hamda bosh auditorning professional tayyorgarlikdan (qayta tayyorgarlikdan) o'tishi muntazam amalga oshiriladi, Bank o'quv-tayyorgarlik ishlariga yordamlashadi hamda IAX xodimlari tomonidan ichki audit sohasidagi xalqaro sertifikatlariga (CIA) ega bo'lishni rag'batlantiradi, xalqaro standartlar talablariga va regulyatorning malaka talablariga asosan ishga sertifikatga ega xodimlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratadi.

IV. Huquq va vakolatlar

16. Auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda IAX xodimlari quyidagi huquq-vakolatlarga egadirlar:

- a) xizmat vazifalarini bajarish jarayonida har qanday aktivlarga, hujjatlarga, buxgalteriya yozuvlariga, axborot tizimlari va resurslariga va Bank faoliyati to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarga (shu jumladan, elektron shaklda) cheklovlersiz kirish huquqini olish, shuningdek, tegishli hujjatlar va ma'lumotlarning nusxalarini olish;
 - б) auditorlik tekshiruvi davomida kelib chiqqan savollar bo'yicha bank rahbariyati va xodimlaridan yozma yoki og'zaki tushuntirishlar olish;
 - в) ichki auditni amalga oshirish maqsadida axborot resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish;
 - г) zarur hollarda, hujjatlarning asl nusxalarini belgilangan tartibda olish;
 - д) tekshirish o'tkazish maqsadida bankning barcha binolariga (xonalariga), shu jumladan naqd pul mablag'lari va qimmatliklar saqlanayotgan binolarga (xonalarga), shuningdek axborot tizimlari, elektron va qog'oz hujjatlari arxivlariga kira olish;
 - е) ichki auditning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Bank xodimlari bilan suhbatlar (intervyu) o'tkazish;
 - ж) tekshiruvlar, shu jumladan, rejadan tashqari va boshqa ichki audit tadbirlari davomida Bank xodimlaridan zarur yordamni olish;
 - з) tekshirish paytida fotosuratga va videotasvirga olish, ovoz yozishni amalga oshirish;
 - и) ichki auditning mustaqilligi va obyektivligi saqlanib qolinishi va Bankning operatsion faoliyatiga jalb qilinmasligi sharti bilan Bank ishchi organlari (qo'mitalar, komissiyalar, ishchi guruhlar va boshqalar) yig'ilishlarida va muhokamalarida qatnashish;
 - к) ichki auditorlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;
 - л) auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan so'ng aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish;
 - м) Aniqlangan tartibbuzarlik va kamchiliklarni bartaraf etish uchun mas'ul shaxslardan quyidagilarni talab qilish:
 - aniqlangan tartibbuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini o'z vaqtida ishlab chiqish, tasdiqlash va bajarish;
 - chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etilishi;
 - chora-tadbirlar rejalarining bajarilishi holati to'g'risida aniqlik kirituvchi yoki tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etilishi.
 - н) Kamchiliklarni bartaraf qilishni kechiktirayotgan, chora-tadbirlar rejasidagi vazifalarni ijrosida mas'uliyatsizlikka yo'l ko'yayotgan bank xodimlariga nisbatan intizomiy jazo qo'llash bo'yicha taklif berish;
 - о) Qonunchilik va bankning ichki hujjatlariga muvofiq, ichki audit maqsadlariga erishish va ichki audit vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan boshqa vakolatlar.
17. Bosh auditor quyidagi vakolat va huquqlarga ega hisoblanadi:
- a) zarur hollarda, Kengash va (yoki) audit qo'mitasini xabardor qilgan holda, rejadan tashqari auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini tashkil qilish;
 - б) Kengash va (yoki) audit qo'mitasining navbatdan tashqari majlisini o'tkazish haqida yozma talabnoma taqdim etish;
 - в) Kengash va uning qo'mitalari hamda boshqaruv majlislarida ovoz berish huquqisiz ishtirok etish.

- r) amaldagi va istiqboldagi rejalar/faoliyat dasturlari, rejalar va dasturlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlar, bank Kengashi va bank Boshqaruvi qarorlari va qarorlar loyihalari bilan tanishish;
- d) ichki audit faoliyati doirasida muayyan vazifalarni hal qilish uchun, belgilangan tartibda tashqi ekspertlar va ekspert sifatida Bankning tarkibiy bo'linmalari xodimlarini jalb qilish.

V. Ma'suliyat

18. IAX quyidagilarga mas'ul hisoblanadi:

- Bank Kengashini ichki audit tekshiruvlari asosida tayyorlangan, bankning joriy holati va ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risidagi xolis va mustaqil axborot bilan ta'minlashga;
- Bank faoliyatining, shu jumladan, ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari hamda jarayonlarni tashkil etilishi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish va ularni bank Kengashi va/yoki Audit qo'mitasi muhokamasiga kiritish;
- IAXning auditorlik tekshiruvlari natijasida aniqlangan, shuningdek, Markaziy bank va tashqi auditorlar tomonidan aniqlangan bank faoliyatidagi qoidabuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;
- Bank rahbariyatiga hamda Markaziy bankka to'g'ri, ishonchli va aktual hisobotlarni o'z vaqtida yetkazish yuzasidan, bo'linmalarining tavakkalchiliklarni boshqarish va hisobotlarni tayyorlash sohasidagi hamkorligi samaradorligini baholash;
- Bank Kengashi so'roviga asosan maxsus tekshiruvlarni o'tkazish yoki bunday tekshiruvlarni o'tkazishga ko'maklashish;
- Boshqa banklar va tashkilotlarning Ichki audit xizmatlari bilan malaka oshirish va tajriba almashish sohasida hamkorlik qilish;
- tashqi auditorlar va Markaziy bank bilan hamkorlik qilish;
- audit tekshiruvlarini tasdiqlangan byudjet doirasida amalga oshirish.

19. IAX xodimlari quyidagi holatlardan cheklanish uchun mas'uldirlar:

- auditorlik tekshiruvi natijalarini buzib (o'zgartirib) ko'rsatish;
- o'z xizmat vazifalarini bajarish paytida olingan ma'lumotlar hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi har qanday ma'lumotlarni maxfiyligini ta'minlamaslik;
- o'z xizmat vazifalarini bajarish paytida olingan ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda yoki uchinchi shaxs manfaatlari yo'lida foydalanish;
- bankning tegishli tarkibiy bo'linmalaridan olingan hujjatlar but saqlanishini va qaytarilishini ta'minlamaslik.

20. IAX xodimlari, belgilangan tartibda, lavozim yo'riqnomalari, mehnat shartnomalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, o'zlariga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, shuningdek, IAX faoliyatini tartibga soluvchi Standartlar, Etika kodeksi va ichki me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadilar.

21. IAX xodimlari, shu jumladan, bosh auditor, audit xolisligi va beg'arazligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalari va boshqa faoliyatga doir qarorlar qabul qilishda, jumladan, moliyaviy hujjatlarni yoki tavakkalchiliklarni qabul qilishni ko'zda tutuvchi hujjatlarni imzolashda ishtirok etishi taqiqlanadi.

22. Audit tekshiruvlari davomida mavjud yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi va noxolislikning oldini olish maqsadida, IAX xodimlari bank yoki uning tarkibiy bo'linmalarida oxirgi

o'n ikki oy mobaynida o'zlari faoliyat yuritgan (mas'ul bo'lgan) soha yoki tarkibiy bo'linmani tekshirish jarayonida qatnashishi taqiqlanadi, shuningdek, IAX xodimi auditorlik tekshiruvi predmeti bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqishda yoki operatsiyani amalga oshirishda bevosita ishtirok etgan bo'lsa, bu xodim ushbu hujjat yoki operatsiyalarning audit tekshiruvida ishtirok etishi mumkin emas.

23. Xolislikni ta'minlash maqsadida IAX xodimlari Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish doirasida qarorlar qabul qilish va tasdiqlashda, ichki nazoratga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish, joriy etish yoki amalga oshirish jarayonida ishtirok etmasliklari lozim, bundan, ichki audit tekshiruvi natijalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda IAX tomonidan audit natijalari asosida tavakkalchiliklarni boshqarish yoki ichki nazoratga doir xulosa va tavsiyalar taqdim etilishi mustasno.

VI. Maqsadlar va vazifalar

24. Ichki auditning maqsadi — bank Kengashi va bank Boshqaruviga boshqaruv samaradorligini oshirish, uning faoliyatini takomillashtirishda, jumladan, Bank oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tavakkalchiliklarni boshqarish, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarini obyektiv tahlil qilish va baholashga tizimli va uzviy yondashish orqali ko'maklashish hisoblanadi.

25. Mazkur maqsadga erishish uchun IAX, mustaqil ravishda, tasdiqlangan yillik tekshiruvlar rejasini doirasida quyidagi yo'nalishlardagi vazifalarni bajaradi:

a) ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligi bo'yicha, ularning qonunchilik, bank ichki siyosatlarini va standartlariga muvofiqligi yuzasidan mustaqil va xolis baholashni taqdim etadi;

b) bank oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda bank biznes jarayonlari, ma'muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini o'rganadi va tahlil qiladi;

b) axborot tizimlarining ishonchliligi, to'liqligi va samaradorligini hamda ma'lumotlarning dolzarbligi, aniqligi, qulayligi, shuningdek, maxfiylik ta'minlanganligini o'rganadi;

g) qonunchilik hujjatlariga, jumladan Markaziy bankning prudensial talablariga hamda bankning ichki hujjatlariga rioya etilishini, Markaziy bank, boshqa davlat organlari va tashqi audit tomonidan aniqlangan kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilganligini o'rganib boradi;

d) aholi va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi samaradorligini o'rganadi;

e) aktivlar butligini ta'minlashga qaratilgan tizimning faoliyatini, qanday ishlashini tekshiradi.

ж) Bankda ichki audit funksiyasini boshqarish va muvofiqlashtirishga nisbatan umumiy yondashuvni, jumladan, tavakkalchilikka asoslangan ichki audit yondashuvini joriy etadi va amalda qo'llaydi;

з) Ichki audit faoliyati natijalari (shu jumladan, jiddiy tavakkalchiliklar, xato-kamchiliklar, ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosi samaradorligi va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, IAX faoliyati rejasini bajarilishi, ichki nazorat, tavakkalchiliklarni, kompaniya tavakkalchiliklarini boshqarish va korporativ boshqaruv tizimlarining ishonchliligi, samaradorligi va haqiqiy holatini baholash natijalari) to'g'risida hisobotlarni tayyorlab, bank Kengashi va Boshqaruvga taqdim etadi.

и) Bank Kengashi tomonidan IAXga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

26. Belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun IAX quyidagilarni bajaradi:

a) moliya yo'nalishida quyidagilarni o'rganadi va tekshiradi:

- bank moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligi, bankning top menejerlar tomonidan boshqarilishi samaradorligi, xodimlarni samarali boshqarish, ma'muriy-boshqaruv xodimlari faoliyati tahlili i bankda mehnat unumdorligi nazoratini baholash;

- moliya masalalari bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmalarning faoliyati, ularning vazifa va vakolatlaridan kelib chiqib, tarkibiy tuzilmaning to'g'ri tashkil etilganligi;
- bank hisob siyosatini baholash, buxgalteriya hisobini, xususan, asosiy vositalarni hisobga olish va nazorati tizimi, ish haqi va boshqa to'lovlar, ombor hisobi va boshqa xo'jalik amaliyotlarining avtomatlashganligi va markazlashganligi darajasini baholash;
- byudjetlash tizimini baholash, biznes rejalarni ishlab chiqish va ularning bajarilishi nazorati, bosh bankdagi tarkibiy bo'linmalar, filiallar va bank xizmatlari ofislari kesimida bank xarajatlarini boshqarish samaradorligini baholash;
- MHXS standartlari hamda milliy hisob standartlarining joriy etilganligi va bajarilishi darajasi;
- moliyaviy va boshqaruv hisobotlarining ishonchliligi, to'liqligi va o'z vaqtida shakllantirilishi, KMO (korporativ ma'lumotlar ombori)dan samarali foydalanilishi, hisobotlarni avtomatlashganlik darajasi;
- moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash, ularni yig'ish, baholash va hisobotlarni tayyorlashda ishlatiladigan ma'lumotlar to'liqligini hamda jarayonlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;

6) tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini baholash yo'nalishida quyidagilarni o'rganadi va tekshiradi:

- tavakkalchiliklarni boshqaruvchi tarkibiy bo'linma faoliyati, jumladan, mazkur bo'linma tomonidan qabul qilingan qarorlarni hamda uning vazifa va vakolatlaridan kelib chiqib, tavakkalchiliklarni (kredit, likvidlik, bozor, operatsion va boshqalar) boshqarish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;
- komplayens nazorat bo'linmasi faoliyati, jumladan, mazkur bo'linma tomonidan qabul qilingan qarorlarni hamda uning vazifa va vakolatlaridan kelib chiqib, komplayens tavakkalchiliklarini boshqarish tizimi va komplayens nazorat tamoyillariga rioya etilishi to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;
- Markaziy bank tomonidan belgilangan talablar va normativlarga rioya etilishini;
- Biznes bo'yicha xorijiy hamkorlar belgilagan kovenantlarga rioya etilishi;
- bankning risk-appetitini belgilash tartibi hamda bank faoliyati risk-appetit doirasida ekanligini;
- tavakkalchiliklarni boshqarish, shu jumladan yirik tavakkalchiliklar va bankka aloqador shaxslar bilan amaliyotlarga doir ma'lumotlarni Markaziy bank, bank Kengashi va Boshqaruvga taqdim etilganligi;
- tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi, jumladan, bank faoliyatida yuzaga kelgan tavakkalchiliklarni aniqlash, o'lchash, baholash, boshqarish, o'z vaqtida chora ko'rish va hisobga olish jarayonlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;
- aktivlar, shu jumladan, kredit portfeli sifatini tahlil qilish metodlari va modelini baholash, kredit portfeli monitoringini tashkil etilishi, tavakkalchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etilishi, aktivlar sifatiga mos zahiralar shakllantirilishi;
- tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha axborot tizimlarining maqbulligini, ulardagi ma'lumotlar aniqligi, ishonchliligi va to'liqligini;
- tavakkalchilikni baholash uslublari ishlab chiqilganligi va qo'llanilishi, jumladan, ushbu uslublarda tavakkalchilikni baholash bosqichlari ketma-ketligi hamda foydalanilayotgan ma'lumotlar dolzarbligi va ishonchliligi;
- Tavakkalchiliklarni boshqaruvchi bo'linma o'zining bankda yuzaga kelgan tavakkalchiliklar bo'yicha xulosalari boshqaruvning fikr-mulohazalaridan farqlanganda, bu haqda bank Kengashini xabardor etganligini (aks holda, bu haqda Kengashni IAX xabardor qilishi kerak);

- Bank tavakkalchiliklarini boshqarish, jumladan, ekologik va ijtimoiy tavakkalchiliklarni boshqarish jarayoni samaradorligini baholash;
 - Biznes jarayonlari, yangi mahsulotlarning zamonaviy bank texnologiyalari va bozor talablariga muvofiqligi bilan bog'liq masalalarni muvofiqlashtirish darajasini hamda ularning avtomatlashtirilganlik darajasini, ushbu jarayonlarda risklarni boshqarish bo'limi tomonidan baholanishi.
- В) Kapital monandligi va likvidlilik yo'nalishida o'rganadi:
- kapital monandligini baholash tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, shu jumladan, kapital monandligi o'rnatilgan prudensial talablarga muvofiqligi;
 - likvidlilik holatini baholash va monitoring qilish tizimlari hamda jarayonlari bankning risk-profiliga muvofiqligiga, shuningdek ularda tashqi iqtisodiy muhit hisobga olinganligiga va likvidlilik ko'rsatkichlari minimal prudensial normativlar doirasida ekanligiga;
 - kapital va likvidlilikni stress-testdan o'tkazish jarayonlariga, shu jumladan stress-testlar davriyligiga, maqsadlariga, ularda qo'llanilgan ssenariylar maqbulligiga, stress-testdagi ehtimoliy xatoliklar va ularda foydalanilgan jarayonlar ishonchliligiga.
- г) Komplayens nazorat tizimi yo'nalishida quyidagilarni o'rganadi va tekshiradi:
- bank faoliyatida komplayens nazoratning korporativ boshqaruv elementi va ichki nazorat tizimining muhim bosqichi sifatidagi o'rni va roli, qonunchilik va bankning ichki standartlariga rioya etilishi nazoratini o'rganish;
 - bank tarkibiy bo'linmalari tomonidan komplayens-nazorat tamoyillariga rioya etilishi darajasi va bankda komplayens nazorat masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi organ faoliyati tahlili hamda uning o'z vazifalarini bajarish samaradorligi tahlili;
 - komplayens tavakkalchiliklarni, jumladan, biznesni korrupsiya va suiste'mol (xususan, bank xaridlari jarayonida) xataridan himoyalash tizimi, manfaatlar to'qnashuvi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirilishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarish samaradorligini baholash;
 - komlayens tavakkalchiliklarga oid kamchiliklarni bartaraf etilishi ustidan monitoring tizimini baholash.
- д) korporativ boshqaruv yo'nalishida quyidagilarni o'rganadi va tekshiradi:
- korporativ boshqaruv samaradorligi, jumladan, vakolat va vazifalarning taqsimlanganligi hamda yetarli darajadagi hisobdorlikning mavjudligi;
 - bank tomonidan manfaatdor tomonlarga oshkor etiladigan, shu jumladan bank veb-saytida joylashtirib borishi zarur bo'lgan ma'lumotlar ishoinchli, aniq, to'liq ekanligi hamda ular o'z vaqtida va davriy ravishda taqdim etib borilishi.
- е) IAXn tashkil qilish, boshqarish va muvofiqlashtirish yo'nalishida:
- IAX faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
 - IAX faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar (siyosat, nizom, ichki me'yoriy hujjatlar, qoidalar, uslublar, ko'rsatmalar va boshqa hujjatlar)ni Bankning ichki tartib-qoidalariga muvofiq ishlab chiqadi va joriy etadi;
 - Bankda auditorlik topshiriqlarini bajarilishini baholash bo'yicha yagona qoidalarini ishlab chiqadi va baholashni amalga oshiradi;
 - IAX faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha tadbirlarini tashkil etadi va amalga oshiradi.
- ж) boshqa yo'nalishlarda quyidagilarni amalga oshiradi:

- har yili IAX yillik byudjetini ishlab chiqadi va bank Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Byudjetni IAX vazifalarini to'liq va sifatli bajarishi uchun yetarli va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi, byudjet IAX xodimlarining ish haqi va ularni malakasini oshirish, safar xarajatlari va IAX faoliyatiga oid boshqa xarajatlarni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilishini ta'minlaydi.
- Kengash topshirig'iga asosan, suiste'mol qilish (firibgarlik), Bankka zarar yetkazish, resurslardan noo'rin, samarasiz foydalanish va bankning boshqa xodimlari hamda uchinchi shaxslarning noto'g'ri/noqonuniy hatti-harakatlari bo'yicha maxsus (xizmat) tekshiruvlarni o'tkazadi yoki ularda ishtirok etadi;
- O'tkazilgan barcha auditorlik tekshiruvlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bank Kengashi, Audit qo'mitasi va Boshqaruvga taqdim etadi, tekshiruvlar davomida aniqlangan qonunbuzarliklarni va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar va ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish hamda Bank faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar kiritib boradi;
- Audit tekshiruvlari davomida aniqlangan tartibbuzarlik va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalarining ishlab chiqilishi va ushbu vazifalarni bank mas'ullari tomonidan belgilangan muddatlarda bajarilishi holatini maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy tizim orqali tizimli nazoratini yuritadi, chora-tadbirlar bajarilishi samaradorligini baholaydi, tavsiyalarning bajarilishi holati haqida bank Kengashiga davriy ravishda hisobot berib boradi;
- IAX xodimlarini malakasini oshirish va tajriba almashish maqsadida banklar va boshqa tashkilotlarning IAX bilan hamkorlik qiladi;
- ushbu Nizomda belgilangan maqsad va masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

VII. Ishlarni rejalashtirish

27. Bankning barcha operatsiyalar turlari va uning barcha tarkibiy bo'linmalari faoliyati ichki auditorlik tekshiruvi doirasiga kiradi.

28. Bankda tavakkalchiliklarga asoslangan holda, ichki audit obyektlari ro'yxati ishlab chiqiladi, ushbu ro'yxat, dolzarbligini ta'minlash maqsadida har yili kamida bir marta, bosh auditor tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Tavakkalchiliklarni baholash natijalariga asosan, bankda audit sikli (tekshiruv oralig'i) 3 yilda bir marta belgilanadi.

29. Yillik reja tavakkalchiliklarni baholashga asoslangan bo'lishi lozim. Yillik umumlashgan rejani ishlab chiqishda tavakkalchiliklarni har tomonlama baholash natijalari, bosh auditorning asoslantirilgan mulohazalari, shuningdek Kengash va boshqaruvdan olingan taklif va mulohazalar inobatga olinishi mumkin.

30. Alohida yo'nalishlar yoki amaliyotlarni o'rganish bo'yicha xizmat (maxsus) tekshiruvlarini bank Kengashi hamda Audit qo'mitasining raisi yoki a'zolari topshirig'iga asosan, shuningdek, bosh auditor topshirig'iga asosan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, alohida amaliyotlar va yo'nalishlarning maxsus auditorlik tekshiruvlari Boshqaruv so'roviga asosan va bosh auditor roziligi asosida o'tkazilishi mumkin.

VIII. Auditni hamda tavsiyalar ijrosi monitoringini amalga oshirish

31. Ichki audit tekshiruvlari o'rganishlarni o'tkazish uchun tegishli kompetensiyalarga ega bo'lgan xodimlardan tuzilgan auditorlik guruhlari tomonidan o'tkaziladi. Zarur hollarda, ichki auditni amalga oshirish, ushbu tekshiruv uchun zarur bo'lgan mutaxassislik hamda kompetensiyalarni inobatga olgan holda, bosh auditor tomonidan bir auditorga yuklatilishi mumkin.

32. IAX oldiga qo'lgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, ichki auditorlik tekshiruvlari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- biznes jarayonlar auditi;
- funksional-komplayens audit;
- alohida yo'nalish va amaliyotlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari

33. Yillik reja asosida auditorlik tekshiruviga chiqishdan oldin batafsil audit dasturi ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda bosh auditor tomonidan tasdiqlanishi lozim.

34. Audit dasturi audit maqsadlarini, soha va yo'nalishlarini, batafsil ish rejasini, audit grafisini, audit predmeti bo'lgan har bir yo'nalishni tekshirish tartib-taomillari qisqa tavsifini, auditda ishtirok etuvchi ichki auditorlar va boshqa shaxslarning ro'yxatini o'z ichiga olishi kerak. Audit davomida audit dasturiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. O'zgartirishlar yozma hujjatlashtirilib, tasdiqlanadi.

35. Audit tekshiruvi yakunlanganidan so'ng, IAX tomonidan audit maqsadlari, sohalari, aniqlangan kamchiliklar, xulosalar hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishga doir batafsil tavsiyalarni o'z ichiga olgan auditorlik hisoboti tuziladi. Auditorlik hisobotiga tahliliy materiallar, izohlar hamda boshqa ishchi hujjatlar to'plami ilova qilinishi mumkin. Auditorlik hisoboti va tekshiruv bo'yicha ishchi hujjatlar IAX xodimlari tomonidan tayyorlanib, bosh auditor tomonidan tekshiriladi.

36. Auditorlik hisobotining mazmuni audit dasturi mazmuniga mos bo'lishi lozim. Auditorlar auditorlik hisobotini rasmiylashtirishda "“Hamkorbank” ATB Ichki audit xizmati tomonidan tavakkalchilikka asoslangan audit yondashuvi asosida auditorlik hisobotini rasmiylashtirish qoidalari” talablariga rioya etishlari shart. Auditorlar tekshirilayotgan bo'linmaning rahbari va mas'ul xodimlarining tushuntirishlarini tinglashlari (yozma tushuntirishlar va asoslovchi hujjatlarga e'tibor qaratishlari) va shundan so'ng yakuniy xulosaga kelishlari lozim.

37. Audit hisoboti IAX xodimlarining mustaqil fikr va mulohazalariga asoslanishi lozim.

38. Bosh auditor har bir audit topshirig'i bo'yicha yakuniy auditorlik hisobotini bank rahbariyatiga etilganga qadar o'rganib chiqadi, auditorlik hisobotini tegishli tomonlarga o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qiladi.

39. Ichki auditorlik hisoboti foydalanuvchilarga faqat bosh auditor tomonidan yoki uning roziligi olingan holda, IAXning boshqa vakolatli xodimi tomonidan taqdim etiladi.

40. Aniqlangan muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tahlilidan kelib chiqib, auditorlar ishlab chiqqan tavsiyalar mavjud tavakkalchiliklarni qisqartirish (oldini olish), kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha talab etiladigan chora-tadbirlarni, jumladan, bankning ichki me'yoriy hujjatlari va tartib-taomillarini ko'rib chiqishni, chora-tadbirlarni bajarish muddatlarini va ijrochilarni o'z ichiga olishi lozim.

41. IAX xodimlari tomonidan aniqlangan asosiy kamchilik va takliflar tekshirish o'tkazilayotgan tarkibiy bo'linma rahbariyati tomonidan izohlab berilishi lozim. Zarur hollarda, ushbu izohlar bank Kengashi va Audit qo'mitasiga taqdim etilishidan oldin auditorlik hisobotiga kiritilishi mumkin.


42. Auditorlik hisobotlari bevosita Kengash va (yoki) audit qo'mitasiga, hisobotlarning nusxalari boshqaruvga, shuningdek, tegishli departamentlar, tarmoq bo'linmalari va bank ta'sischi bo'lgan kompaniyalar rahbarlariga taqdim etiladi.

43. Agarda auditorlik hisoboti yo'nalishlarga taqdim etilganidan so'ng, hisobotning yakuniy shaklida jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, bosh auditor tahrirlangan auditorlik hisobotini o'zgarishlar haqidagi izohlar bilan, ushbu hisobot avval taqdim etilgan barcha yo'nalishlarga qaytadan yuborishi lozim.

44. Ichki audit tekshiruvining barcha asosiy tadbirlari, rasmiylashtirilayotgan auditorlik hisobotiga talablar, tavakkalchiliklarni tahlil qilish va baholash qoidalari, shuningdek, tuzatuvchi chora-tadbirlar o'tkazilishi ustidan monitoring yuritish bo'yicha talablar IAXning alohida ichki me'yoriy hujjatida ko'rsatib o'tiladi.

IX. Hisobdorlik va IAX faoliyati nazorati

45. IAX faoliyatini boshqarish bosh auditor tomonidan amalga oshiriladi. IAX bank Kengashi huzuridagi Audit qo'mitasi (ayrim masalalarda Tavakkalchiliklar qo'mitasi)ga hisobdordir. Hisobdorlik tartibi quyidagicha belgilanadi:



46. IAX faoliyati yuzasidan bank Kengashiga quyidagi hisobotlarni taqdim qilib boradi:

- a) Yillik ish rejasiga asosan o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlar, har chorakda;
- b) IAX yillik ish rejasining bajarilishi, shuningdek, ichki audit faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa jihatlar to'g'risida ma'lumotlar, har chorakda;
- b) IAX tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha berilgan tavsiyalarni bank tarmoqlari, bank ta'sis qilgan korxonalar va boshqa bo'linmalari tomonidan bajarish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, har chorakda;
- g) "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2696, 14.07.2015-yil) talablariga muvofiq, balansdan tashqari hisobvaraqa o'tkazilgan "umidsiz" aktivlarni undirish bo'yicha bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida yozma hisobot (*har chorakda bir marta tanlanma usuldagi tahlil hamda yil yakunida bir marta batafsil tahlilni amalga oshirish orqali*);
- d) Ichki audit tomonidan aniqlanib, jiddiy oqibatlarga ega deb hisoblangan, biroq, bankning ijro organi tomonidan maqbul darajada deb topilgan (qabul qilingan) tavakkalchiliklar haqida ma'lumotlar, ushbu holat agar mavjud bo'lsa bu haqdagi ma'lumot Audit qo'mitasi va Kengashning navbatdagi yig'ilishi muhokamasiga taqdim etilishi lozim.

47. Bank Kengashiga, yuqoridagilardan tashqari, bank Kengashi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ma'lumotlar taqdim qilinadi.

48. IAX, bank Boshqaruvi raisi hamda mas'ul tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijalari yuzasidan hisobot va tavsiyalarni, tegishli vazifalar belgilangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va ularni bajarilishini muvofiqlashtirish maqsadida, ichki me'yoriy xujjatlarda belgilangan reglamentlar asosida takdim kilib boradi.

49. IAX faoliyatini to'g'ri nazoratini va baholashni ta'minlash, shuningdek, uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida bosh auditor Ichki audit sifatini ta'minlash va rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi va joriy etadi. Mazkur ichki me'yoriy hujjat ichki audit

faoliyatini Ichki auditning xalqaro professional standartlariga muvofiqligi hamda ichki auditorlar tomonidan Xalqaro ichki auditorlar instituti Etika kodeksini qo'llanilishini baholash maqsadida ishlab chiqiladi. Ushbu dastur doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

- ichki audit faoliyatini ichki baholash (uzluksiz monitoring va o'z-o'zini baholash tadbirlari orqali);

- ichki audit faoliyatini tashqi baholash.

50. IAX faoliyatining uzluksiz monitoringini yuritishda bosh auditor quyidagilar ustidan nazoratni amalga oshiradi:

- auditorlik tekshiruvlari va IAX boshqa tadbirlarini rejalashtirilishi hamda rejadagi muddatlarda amalga oshirilishi;

- audit tekshiruviga oid hujjatlarni rasmiylashtirilishida IAX tomonidan ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjatlarda aks etgan, standartlashtirilgan qoidalar va shartlarga rioya etilishi;

- ichki auditorlarning samaradorligi asosiy ko'rsatkichlarini (KPI) baholash, auditorlik tekshiruvi davomida shakllantirilgan ishchi hujjatlarni baholanishi, jumladan, auditorlik protseduralarini bajarish paytida amalga oshirilgan kuzatuvlar va xulosalar asosida aks ettirilgan zaruriy auditorlik dalillarining to'liqligini o'rganish;

- rasmiylashtirilgan audit hujjatlarini kelishish va tasdiqlash tadbirlarini IAXning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi;

- ichki audit obyekti mas'ullari va boshqa manfaatdor tomonlardan ichki audit guruhi ishining samaradorligi va natijadorligi to'g'risida qayta aloqa olish, ichki audit vakolatiga taalluqli boshqa masalalar bo'yicha audit obyektlari mas'ullari va boshqa manfaatdor shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

- IAX faoliyatini uzluksiz (joriy) tahlil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan boshqa ishlarni amalga oshiradi.

51. O'z-o'zini baholash tadbirlari uzluksiz monitoring jarayonining samaradorligini tasdiqlash, ichki audit faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqligini hamda ichki auditorlar tomonidan etika kodeksini qo'llanilishini baholash maqsadida davriy ravishda o'tkazib boriladi.

52. IAXni tashqi baholash, mustaqil ekspertlar tomonidan har besh yilda bir martadan kam bo'lmagan davriylikda amalga oshiriladi.

X. Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari, tashqi auditor hamda Markaziy bank bilan hamkorlik

53. IAX bank Boshqaruvi bilan quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'zaro aloqada bo'ladi:

- ichki auditni amalga oshirish uchun tasdiqlangan byudjet doirasida zarur mablag'larni ajratilishi;

- IAX ish rejasiga muvofiq tekshiruvlar o'tkazilishini tashkil etilishi;

- audit tekshiruvi natijalari to'g'risida hisobotlarni qabul qilish;

- audit natijalari yuzasidan muhokamalar o'tkazish va chora-tadbirlar belgilash;

- audit tekshiruvlarida aniklangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tuzilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida sifatli ijro etilishini nazorat qilish;

- audit davomida audit obyekti bo'yicha aniqlangan holat kengrok tekshiruv (masalan, mijozlar bilan hisoblarni taqqoslash o'tkazish)ni talab qilgan hollarda, ichki auditorlar bergan tavsiyaga asosan qo'shimcha o'rganishlarni o'tkazish;

- IAXning Bank bo'linmalari bilan o'zaro aloqalarini qo'llab-quvvatlash;

- Bank strategiyasi va ichki siyosatlariga kiritilgan o'zgartirishlar, bankdagi loyihalar, yangi bank mahsulotlari, bank tashkiliy tuzilmasi o'zgarishi hamda bankda mavjud va yuzaga kelishi kutilayotgan tavakkalchiliklar yuzasidan IAXni o'z vaqtida xabardor qilib borilishini ta'minlash.

54. Bank tashqi auditori bilan quyidagi asosiy yo'nalishlarda hamkorlik qiladi:

- tashqi auditorga Bankdagi ichki nazorat tizimining holati to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi yuzasidan yordam ko'rsatish;
- tashqi auditorning bankda ichki nazorat tizimining holati to'g'risidagi xulosalarini muhokama qilishda ishtirok etish;
- tashqi audit jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni bartaraf etishda ishtirok etish;
- har yili kamida bir marta Bankning tashqi auditori bilan uchrashuvlar o'tkazish, xususan, Bankning buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti to'g'risida tashqi auditorning xulosasini o'rganish, baholash davomida.

55. Markaziy bank bilan:

- Markaziy bank IAX xodimlari, shu jumladan bosh auditor bilan uchrashuvlar o'tkazishga haqli va mazkur uchrashuvlarda bank faoliyatiga oid turli masalalar muhokama qilinishi mumkin;
- IAX Markaziy bankning bank Kengashiga berilgan talabnomasi asosida bank faoliyatidagi alohida masalalar va (yoki) bankning ma'lum davrdagi faoliyati yuzasidan auditorlik tekshiruvini o'tkazadi, o'z vakolatiga kiruvchi alohida masalalar yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etadi, o'z faoliyatini qonunchilik va Markaziy bank talablariga muvofiqlashtiradi;
- Markaziy bank bankdan IAX o'tkazgan tekshiruvlarga oid har qanday ma'lumotlar, hisobotlarni olishga haqli va tekshiruv natijalarini muhokama qilishi mumkin.

XI. Yakuniy qoidalar

56. IAX to'g'risidagi Nizom bank Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi. Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, bekor qilish bank Kengashining tegishli qarori bilan amalga oshiriladi.

57. Mazkur Nizomda aks etmagan ayrim tamoyillar, qoidalar va shartlar "Hamkorbank" ATB Ichki audit Siyosati hamda IAXning bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan boshqa ichki me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

58. IAX to'g'risidagi Nizom bosh auditor tomonidan, IAX oldiga qo'yilgan maqsadlar va vazifalardagi o'zgarishlardan kelib chiqib, amaldagi me'yoriy hujjatlardagi, bank strategiyasi va faoliyat yo'nalishidagi o'zgarishlar inobatga olingan holda har yili kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

59. Mazkur Nizom talablarining bajarilishi bosh auditor tomonidan nazorat qilinadi. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga va bankning ichki tartiblariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

IAX boshlig'i

U. Soliyev

ОРГАНИЗАЦИОННАЯ СТРУКТУРА СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА АКБ «HAMKORBANK»

